

## Pragmatik to'siq yuzaga chiqishida emotiv birliklar ta'siri

Mirobidova Nilufar Murodjon qizi  
O'zMU Jurnalistika va o'zbek filologiyasi fakulteti 2-kurs tayanch doktoranti  
[nilufarmirobidova19@gmail.com](mailto:nilufarmirobidova19@gmail.com)

**Annotatsiya:** Hozirgi kunda tilshunoslikning aktual yo'nalishlaridan biri pragmalingvistika bo'lib, pragmalingvistika til birliklarining nuqt vaziyati, konteks, til egalarining nutq obyekti haqidagi umumiy bilimlari kabi qator omillar bilan yuzaga chiqadigan imkoniyatlarini o'rganadigan zamonaviy tilshunoslik yo'nalishidir. Muloqot jarayonida uzatiladigan axborot kommunikativ maqsadga erishish vositasidir. Muloqotning muvaffaqiyati ushbu maqsadga qanchalik erishilganligi bilan bog'liq. Muloqot a'zolari ortasida yoki yozuvchi va kitobxon orasida ba'zi bir-birini anglashga to'sqinlik qiladigan o'rinlar mavjud bo'ladi. Bu o'z navbatida pragmatik to'siqni keltirib chiqaradi. Maqolada o'zbek pragmalingvistikasidagi muhim masalalardan biri bo'lgan pragmatik to'siq haqida so'z boradi. Ma'lumki, pragmatik to'siq bir qancha omillar, xususan, lingvistik va ekstralingvistik ta'sir natijasida yuzaga keladi. Lisoniy omillarga so'z qo'llash bilan bog'liq bo'lgan xatoliklar, so'zni noo'rin qo'llash, lug'aviy ma'nosidan tashqari qo'llash, shevaga oid so'zlarni bilmaslik, sohaviy terminlarni anglamaslik kabi bir qancha omillar kiradi. Ushbu maqolada pragmatik to'siq yuzaga chiqishining bir qancha faktorlari ko'rib chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** pragmalingvistika, pragmatik to'siq, lingvistik omillar, ekstralingvistik omil, so'z qo'llash me'yorining buzilishi.

## The effect of emotional words on the emergence of pragmatic barriers

Mirobidova Nilufar Murodjon qizi  
2nd year doctoral student, Faculty of Journalism and Uzbek Philology, National University of  
Uzbekistan  
[nilufarmirobidova19@gmail.com](mailto:nilufarmirobidova19@gmail.com)

**Annotation:** One of the modern directions of linguistics is pragmalinguistics - a modern linguistic direction that studies the possibilities of linguistic units resulting from the influence of a number of factors, such as the situation, context and general knowledge of speakers about the object of speech. The information conveyed during a conversation is a means of achieving a communicative goal. The success of the encounter depends on the extent to which this goal is achieved. There will be moments between the participants in a dialogue or between the writer and the reader that hinder mutual understanding. This in turn creates a pragmatic barrier. The article deals with pragmatic barrier, one of the important issues of Uzbek pragmatics. It is known that pragmatic barrier arises as a result of a number of factors, particularly linguistic and extra-linguistic influences. Linguistic factors include a number of factors such as word usage errors, inappropriate use of words, use of words beyond their dictionary meaning, unfamiliarity with dialect words and misunderstanding of industry terms. This paper discusses several factors that contribute to pragmatic barriers.

**Key words:** pragmalinguistics, pragmatic barrier, linguistic factors, extralinguistic factor, violation of the norm of word usage.

## Влияние эмотивных слов на возникновение прагматических барьеров

Миробидова Нилуфар  
Докторант 2-курса факультета Журналистики и узбекской филологии Национального  
университета Узбекистана  
[nilufarmirobidova19@gmail.com](mailto:nilufarmirobidova19@gmail.com)

**Аннотация:** Одним из современных направлений языкознания является прагмалингвистика – современная лингвистическая направления, изучающая возможности языковых единиц, возникающие в результате воздействия ряда факторов, таких как ситуация, контекст и общие знания говорящих об объекте речи. Информация, передаваемая в ходе разговора, является средством достижения коммуникативной цели. Успех встречи зависит от того, в какой степени будет достигнута эта цель. Между участниками диалога или между писателем и читателем будут возникать моменты, препятствующие взаимопониманию. Это, в свою очередь, создает прагматическое препятствие. В статье рассматривается прагматический барьер – один из важных вопросов узбекской прагматики. Известно, что прагматический барьер возникает в результате действия ряда факторов, в частности, языковых и экстралингвистических влияний. Лингвистические факторы включают в себя ряд факторов, таких как ошибки, связанные с употреблением слов, ненадлежащее использование слов, использование слов за пределами их словарного значения, незнание диалектных слов и непонимание отраслевых терминов. В данной статье рассматриваются несколько факторов, способствующих возникновению прагматических барьеров.

**Ключевые слова:** прагмалингвистика, прагматический барьер, лингвистические факторы, экстралингвистический фактор, нарушение нормы словоупотребления.

## KIRISH

Jahon tilshunosligida soʻngi yillarda ilmiy paradigmalari almashinuvi yuz berib, endi tilshunoslar diqqat markaziga antroposentrik paradigma chiqdi. Oʻtgan asr oxirlarida antroposentrik tilshunoslikning yoʻnalishlaridan biri sifatida pragmalingvistika rivojlandi. Pragmalingvistika til birliklarining nuqt vaziyati, kontekst, til egalarining nutq obyektiga haqidagi umumiy bilimlari kabi qator omillar bilan yuzaga chiqadigan imkoniyatlarini oʻrganadigan zamonaviy tilshunoslik yoʻnalishidir. Dunyo tilshunosligida tilshunoslikning bu kabi muammolari qatorida nutqni oʻrganish, ularning nutqida sodir boʻlayotgan pragmatik toʻsiqni keltirib chiqargan lingvistik va ekstralingvistik omillarini oʻrganish ham dolzarb muammolardan biridir. Insoniy va noinsoniy sabablar taʼsirida yuzaga chiquvchi pragmatik toʻsiqni oʻzbek ayollari nutqi misolida taqdim etish pragmalingvistika uchun qimmatli nazariy bilimlar berishi shubhasiz.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Antroposentrik tilshunoslik paradigmasi yondashuvda pragmalingvistik tadqiqotlar koʻplab uchraydi. Jahon tilshunosligi oʻtgan asrning 2-yarmidan buyon pragmalingvistik, etnolingvistik, lingvokulturologik, kompyuter lingvistikasiga oid ilmiy asarlar yaratib kelinmoqda. Oʻzbek tilshunosligida pragmatik tadqiqotlar M.Hakimov, Sh. Safarov, D.E.Lutfullayeva, D.S.Xudoyberganova, M.Qurbonova tadqiqotlarida oʻz aksini topgan boʻlsa, jahon adabiyotida V.V.Gelgard, L.A.Kiseleva, tomonidan batafsil yoritildi. Ayollar nutqida badiiy tasvir vositalarining qoʻllanilishi T.Gʻ.Joʻrayev va S.Gʻ.Halimov hammuallifligidagi qoʻllanmada qisqacha izohlandi. Ayollar nutqining pragmatik xususiyatlari yaxlit tarzda taqdim qilinmagan. Pragmatik toʻsiq muammosi ham alohida ilmiy ish shaklida oʻrganilmagan.

**TADQIQOT METODOLOGIYASI.** V. Vinogradov muloqotdagi qiyinchilik darajasiga qarab aloqa buzilishlarining tasnifini taqdim etadi. Ushbu tasnifga koʻra quyidagilar ajralib turadi: kommunikativ meʼyorning buzilishi - matnni shakllantirishda ham, xatti-harakatlarida ham kommunikativ standartlar va aloqa qoidalaridan asossiz ogʻishlar (soʻzlashuv nutqining gipertrofiyalangan kitobxonligi, salomlashishga kommunikativ reaksiyaning yoʻqligi, ommaviy). haqorat qilish va boshqalar); aloqadagi muvaffaqiyatsizliklar (tushunmovchilik yoki tushunmovchilik, oldindan aytib boʻladigan reaksiyaning yoʻqligi, muloqotga qiziqishning yoʻqligi) sabab boʻladi deb ifodalaydi. (Madrahimov, 2005)

Yuqoridagilarni ayollar nutqiga tadbiq etadigan bo'lsak, bir qancha misollar bilan ko'rib chiqamiz. Ayollar kommunikativ muloqotda so'z qo'llash me'yorini buzilishi natijasida to'siqqa duch kelishadi. So'zlovchi so'zlagan so'zning ma'no-mazmuni, tinglovchi ongida dekodlanamaydi. Suhbat haqida to'liq tasavvur yuzaga kelmaydi.

Ba'zan matnda shunday so'zlar qo'llanadiki, ular matndan tashqarida o'z ma'nosida ishlatiladi, matn tarkibida esa umuman boshqa ma'noda qo'llanadi. Ba'zan o'xshatishlarda ham shunday hodisani ko'rishimiz mumkin.

Bu yozuvchining mahoratidan, so'zlardan uslubiy vosita sifatida foydalanganidan dalolat beradi. Masalan, Abdulhamid Cho'lpon toy so'zini o'z ma'nosidan tashqari ma'noda mahorat bilan qo'llaydi.

*“Ichkaridagilar ham dong qotdilar. Faqat oralarida, xuddi ko'chadagi yosh yigitcha singari, uyqusi ochilgan, ko'krigidagi yangi, begona va shirin hislarni angalayolmasdan hayron bo'lgan birov bor edi. U ham ko'kdagi oyga qarab, yerdagi “toy”ni o'ylar va yuzlari anorday qizarardi.”* (Cho'lpon, 2018, 87.)

“Toy” so'zi izohli lug'atda “otning bir yoshdan ikki yoshgacha bo'lgan bolasi” ma'nosida qo'llanishi aytilgan. Ammo yozuvchi bu so'zni qiz bolaga nisbatan mahorat bilan qo'llaydi. “Toy” so'zi yosh bolalarga nisbatan erkalash ma'nosida ham ishlatiladi. Masalan:

*Uning uzoq yurtida, quyosh va gullar diyori O'zbekistonda qolgan duogo'y kampir onasi uni –yolg'iz o'g'lini erkalar ekan, har vaqt – “Rustam toyim, Arslon toyim!” deb atamasmidi.*

Yuqoridagi matnda esa qiz bolaga nisbatan ko'kdagi oy so'ziga qofiyadosh sifatida ushbu so'z muallif tomonidan tablanganini ko'rishimiz mumkin. Bu ham uslubiy vosita sifatida asar jozibadorligini oshirgan.

Pragmatik to'siqni tadqiq etar ekanmiz, ayollar nutqidagi ba'zi xususiyatlarni ham hisobga olishimiz kerak. Ular so'zlarni kesatish, kinoya ma'nolarida ko'proq ishlatadilar. Erkakalarga nisbatan ayollarda emotsionallik kuchli yuzaga chiqadi. So'zlar o'z denotativ ma'nosidan chiqib, konnotatsiya ifodalaydi. Tilshunos A.Haydarov, “Konnotatsiya til va nutq birliklari ma'no tarkibining ajralmas qismi bo'lib, ular ifodalagan asosiy denotativ ma'noni to'ldiradi va turli darajada qo'shimcha emotsional-ekspressivlik hosil qiladi” degan fikrlar bildirgan. Ayollar nutqida ham leksik-semantik konnotatsiya ko'p uchraydi va bu, o'z navbatida, pragmatik to'siq yuzaga chiqishiga ham sabab bo'ladi.

*Varaqi somsalar qilsak, oq unlardan g'alati mantilar, chuchvaralar qilsak, boylarnikida bo'ladigan dimlama qog'urmalar qilsak... (Cho'lpon, 2018, 54.)*

Enaxon tilidan aytilgan ushbu gapda g'alati so'zi o'z ma'nosidan tashqari ko'chma ma'noda ishlatilgan. Hozirgi kunda G'alati leksemasida salbiylik ottenkasi ko'proq ma'no tashiydi. Yuqoridagi parchada esa ijobiy m'noda, “zo'r”, “mazali”, “shirin” ma'nolarida qo'llangan. Ayollar nutqidagi bu o'ziga xoslik ham o'quvchi uchun, bevosita pragmatik to'siqni yuzaga kelishiga sabab bo'ladi.

Muloqot jarayonida uzatiladigan axborot kommunikativ maqsadga erishish vositasidir. (Qurbonova, 2009) Muloqotning muvaffaqiyati ushbu maqsadga qanchalik erishilganligi bilan bog'liq. Aloqa muvaffaqiyatiga ta'sir qiluvchi universal xarakter xususiyatlari ham mavjud. Ma'ruzachi va tinglovchining manfaatlari ko'p jihatdan bir-biriga mos kelmaydi. Ma'ruzachi uzatiladigan ma'lumotlarning hajmini kamaytirishga intiladi, bu uning uzatilishiga imkon qadar kamroq kuch sarflaydi. Bu yerda biz iqtisod tamoyili haqida gapiramiz. Qabul qilingan xabar yuborilgan ma'lumotlarga mos kelishi uchun tinglovchi yetarli ma'lumot olishga qiziqadi. Xabarlarining moslik darajasi ishonchlilik deb ataladi. Ularning xususiyatlarida samaradorlik va ishonchlilik antagonistik parametrlardir. Samaradorlik qanchalik yuqori bo'lsa, ishonchlilik shunchalik past bo'ladi va aksincha. Muloqot ishtirokchilari o'zlarining xabarlarini etarlicha samarali va ishonchli bo'lishini ta'minlashga harakat qilishlari kerak.

Muvaffaqiyatli kommunikativ muloqot o'zaro ta'sirning kuzatuvlariga asoslanib, olimlar qoidalarni ishlab chiqadilar. Muloqot sherigini ijobiy idrok etish, bizning fikrimizcha, kommunikativ

o‘zaro ta‘sir muvaffaqiyatini belgilovchi asosiy omil hisoblanadi. Muloqot jarayonida odam o‘z sherigini o‘z harakatlari bilan birga - og‘zaki yoki og‘zaki bo‘lmagan - va harakatlar orqali idrok etadi.

Quyidagi misolda ham so‘z qo‘llash bilan bog‘liq omil ta‘sirida pragmatik to‘siq yuzaga chiqishini ko‘rishimiz mumkin.

- *Davlati qursin, davlati!.. enaxonning kelinbibilisiga rashkim keladi... davlat asar yo‘q. Ro‘zg‘orlari zo‘rg‘a o‘tadi. Qo‘zichoqday ikki bolasi bor. Eri hamisha yonida... kundosh alami yo‘q...*

- *Nimasini aytasiz...*

“Rashk qilmoq” so‘zi hozirgi kunda hasad ma‘nosidan ancha uzoqlashgan. Ko‘proq qizg‘anishma‘nosida qo‘llaniladi.

- *Topibsiz-a?.. Esingizga qoyilman! U qizning ta‘rifini men ham eshitdim. Balo emish. (Cho‘lpon, 2018, 176.)*

Enantiosemiya - so‘zning semantik rivojlanishi bilan bog‘liq hodisa. Bu so‘zning leksema tarkibida qarama-qarshi, antonimik ma‘nolar hosil qilish qobiliyati sifatida aniqlanadi. So‘zda antonimik ma‘nolarning rivojlanishi, ma‘nolarning qutblanishi. Bir so‘zda ikki qarama-qarshi ma‘noning yuzaga kelishidir. Masalan, chilla so‘zi — eng sovuq qirq kun va — eng issiq qirq kun ma‘nolariga ega. Sovuq va issiq ma‘nolari zidlangan, qishning chillasi va yozning chillasi ma‘nosida bir-biriga qarama-qarshi qo‘yilgan. Leksema tarkibidagi ma‘no ham ijobiy bahoga ega bo‘ladi, ham salbiy ma‘noda ishlatiladi. Masalan, Abdulhamid Cho‘lpon ijodidagi ushbu parchada “balo” so‘zi enantiosemaligini ko‘rishimiz mumkin. Izohli lug‘atda ushbu so‘z ma‘nosi “sinov, ofat, musibat, baxtsizlik” kabi leksik birliklar bilan ochib berilgan. Parchada esa ijobiy baho munosabatini ifoda etib kelmoqda.

Kommunikativ aloqa ko‘p qirrali, o‘ziga xos mahorat talab qiladigan murakkab jarayondir. (Hakimov, 2011) Aloqada so‘zlovchi va tinglovchi o‘rtasidagi axborot almashinuvi va uni izohlash, olingan ma‘lumotlarni o‘zaro dekodlash, o‘zaro tushunish, o‘zidan kelib chiqib baho berish, empatiya, yoqtirish yoki yoqtirmaslikning namoyon bo‘lishi, munosabatlarning tabiati, e‘tiqodlari, qarashlari, psixologik ta‘siri kabi bir qancha faktorlarni o‘z ichiga oladi. Hayotimiz davomida suhbatdosh odamlar bilan muloqot qilishda, muloqot sohasida amaliy ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lib boramiz.

Kinoya, kesatq ayollar nutqining o‘ziga xos xususiyatlaridan biri ekanligini ko‘rib chiqdik. Hissiy emotssional bo‘yoq ta‘sirida ayollar nutqida kinoya yetakchi o‘rin egallaydi. Erkaklar va bolalar nutqidan farqli o‘laroq, ayollar, ayniqsa katta yoshli ayollarda kesatq ko‘p uchraydi. “Kecha va kunduz” romanidagi ushbu parchada ham bu holat ko‘zga tashlanadi

- *Muncha eslik ekan bu Sultonxon ayang! – deb takror qildi Xadichaxon. – muncha eslik ekan!.. (Cho‘lpon, 2018 134.)*

Gapda “eslik” ma‘nosi aynan qarama-qarshi ma‘noda ishlatilgan. Akbarali mingboshining xotini Xadichaxon kundoshi Sultonxonning Zebi va uning dugonalarini mehmonga chaqirganini eshitib, hursand bo‘ladi. Chunli mingloshining xotinbozligi ayoliga ma‘lum. Kelin bo‘lib tushganiga 5 oygina bo‘lgan Sultonxon esa o‘zi bilmagan holda kundosh orttirishga sababchi bo‘lib qolganini bilmaydi. Shunga kesatq ma‘nosida Xadichaxon “eslik” so‘zini antonimi ma‘nosida qo‘llaydi. Bu so‘z qo‘llashdagi uslubiy xatolik qizi Fazilat tomonidan nutqni to‘laligicha, ochiq idrok qilishga to‘sqinlik qilib, pragmatik to‘siq yuzaga chiqishida sababchi bo‘ladi.

#### XULOSA

Kommunikativ-pragmatik to‘siq ayollar nutqida kuzatilishini ko‘rib chiqdik. Ayollar nutqida pragmatik to‘siq ko‘pincha tilning orfoepik me‘yorlariga amal qilmaslik, so‘zlarni noto‘g‘ri talaffuz qilish, suhbatdosh gapining eshitilar-eshitilmas holatda bo‘lishi mumkin. Leksik birliklarni noo‘rin qo‘llash, so‘zni boshqa ma‘nolarda ishlatish kabilar bilan bog‘liq holda yuzaga kelib, nutq mazmunini xiralashtiradi. Ba‘zan ayollarda leksik birliklardankonnotativ va denotativ ma‘no-

mazmunini tushunmay nutqda qo‘llash, talaffuz me‘yorlariga rioya qilmaslik kabilar pragmatik to‘siqning yuzaga kelishiga sabab bo‘ladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Madrahimov, I. (2005). So‘z serqirraligi va uni tasniflash asoslari. Farg‘ona.
2. Bally, C. (1955). Obshchaya lingvistika i voprosy frantsuzskogo yazyka (Sh. Balli, Trans.). Moskva.
3. Qurbonova, M. (2009). O‘zbek bolalar nutqi leksikasining sotsiopsixolingvistik tadqiqi (Nomzodlik dissertatsiyasi). Toshkent.
4. Hakimov, M. (2011). O‘zbek tilida matnning pragmatik talqini (Doktorlik dissertatsiyasi). Toshkent.
5. Lutfullayeva, D. (yil ko‘rsatilmagan). O‘zbek tili fe‘llarining pragmatik xususiyatlari. In Olima ayollarning fan-texnika taraqqiyotida tutgan o‘rni (Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari).
6. Gavranek, B. (1967). Zadachi literaturnogo yazyka i ego kultura. In Prazhskiy lingvisticheskiy kruzhek: Sbornik statey (Moskva).
7. Cho‘lpon, A. (2018). Kecha va kunduz. Adabiyot uchqunlari.
8. Hoshimov, O. (2018). Dunyoning ishlari. Sharq nashriyot-matbaa.